

YOSHLAR ONGINI MA'NAVIY YUKSALTIRISH - OILY MAQSADIMIZ

Nuriddin Sirojiddinov

“Orion media foto video studiyasi” asoschisi, Alisher Navoi nomidgi davlat stipendiyasi sohibi, snsirojiddinov@gmail.com

Ilmiy rahbar: Uchqun Tillaev

IIV Podpolkovnik, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola yosh avlodni turli hil buzg'unchi g'oyalar: diniy ekstrimizm, terrorizm, fundamentalizm va vandalizm kabi zararli g'oyalar ta'sirlaridan asrash, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiya qilish masalalariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: buzg'unchi g'oyalar, diniy ekstrimizm, terrorizm, fundamentalizm, vandalizm, ta'lim – tarbiya, yosh avlod, vatanparvarlik, ma'naviy yuksaltirish, umuminsoniy qadriyatlar, hushyorlik, yoshlar siyosati, ma'naviy immunitet, globallashuv.

Abstract: This scientific article is devoted to the issues of protecting the younger generation from various harmful ideological: religious extremism, terrorism, fundamentalism, and vandalism. Aim of the article educating young generation in the spirit of patriotism.

Key words: religious extremism, terrorism, fundamentalism, and vandalism, education and training, younger generation, patriotism, spiritual upliftment, global traditions, vigilance, youth policy, moral immunity, globalization.

KIRISH

Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot,
yo najot-halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.
Abdulla Avloniy

Ta'lim tarbiya jamiyatning asosiy poydevori hisoblanadi. Ta'lim tarbiyaning asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki yosh avlodni tarbiyalashda uning ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini ham shakllantirishdir. Yurtimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar 2017 yilda qabul qilingan “ta'lim to'g'risidagi qonun ta'lim jarayonlarini xalqaro mezonlarga moslashtirishga xizmat qilmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

XXI globallashuv asrida yashar ekanmiz hayotimizga ijtimoiy tarmoqlarning kirib kelishi oddiy bir jarayonga aylanib ulgurdi. Tezkor zamonaviy axborot muhitida har bir inson axborot almashinuviga bo'lgan ehtiyojlarini o'z mobil aloqa vositalari va turli hil gadjetlar orqali qabul qilib oladi. Bugunning dolzarb masalalaridan biri sifatida asrlar davomida shakllangan o'zbek mentolitetimizga zid bo'lgan, turli xil zararli g'oya va “ommaviy madaniyat”ning yoshlarimiz hayotiga kirib kelayotganligini afsus bilan aytishimiz mumkin. Bunday salbiy holatlarni oldini olish uchun O'zbekistonda yoshlar masalasiga davlat siyosatining eng ustivor masalalaridan biri sifatida qaralmoqda. Yurtimizning asosiy faol qatlami yoshlar bo'lganligi sababli ham ko'plab qarorlar, qonunlar

“Yoshlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash”, ularni davlat tomonidan himoya qilish asosiy vazifalardan sanaladi.

ASOSIY QISM

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvarda “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni imzolandi va unda Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishga oid quyidagi vazifalar mavjud:

- Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash;

- Yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalariidan himoya qilish;

- Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish; Iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish (1.119)

Terrorizm-lotincha so‘z bo‘lib “qo‘rqinch, “daxshat” degan ma‘noni anglatadi.

Terrorizmni biror millat yoki dinga nisbat berish mutlaqo notog‘ri. Zero, terrorizmni hech qaysi din, hech qaysi millat oqlamaydi. U kimning va nimaning nomidan qilinishidan qat’iy nazar, uni amalga oshiruvchi shaxs javobgar hisoblanib, qonunlarda belgilangan jazoga mahkum etiladi.

Bugungi media makonni kuzatar ekansiz, turli axborot hurujlari avj olib, islomni yomon otlig‘ga chiqarishga urinishlar ko‘p kuzatilyapti. Bu achinarli holdir. Chunki, “islom o‘z nomi bilan – tinchlik dini”dir.(2.5.)

Asl islom dinimizning ulug‘ muhaddislari Imom-al Buhoriy, Imom at Termiziy kabi Islom olamida nom qozongan mutaffakirlar bizning yurtimizdan yetishib chiqqanligini yoshlarimiz ongiga har doim singdirib borishimiz ularda “g‘oyaviy immunitet”ni shakllantirishimiz uchun asosiy omil bo‘ladi deb hisoblaymiz. Buning uchun eng avvalo oilada, mahallada, maktabda bir tanu birjon bo‘lib harakatlanishimiz darkor.

Doim har birimizning hushyor va sergak bo‘lishimiz har qanday ko‘ngilsizliklarni oldini oluvchi asosiy mezon sanaladi. Soxibqiron Amir Temur tuzukalarida hushyorlik haqida shunday deyiladi: “Ishbilarmon mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy tadbirkor va hushyor bir kishi ming minglab tadbirsiz , loqayd kishidan yaxshidir.” (3.17)

Yusuf Hos Hojibning “qutag‘u bilig asarida ta’kidlanganidek, hushyorlik tufayligina yovni yengish mumkin, g‘ofillik beklik bog‘ini buzadi.(4.)

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir kitobida:

-Biz ona Vatanimiz O‘zbekiston Istiqlolini, uning sh‘nu-shavkatini qanday himoya etishni ota-bobolarimizdan meros qilib olishimiz va uning himoyasiga hamisha tayyor turmog‘imiz darkor.(5.82)

Xulosa

Ta’lim jarayonlarida ularga bilim berish bilan birga ularning estetik va madaniy tarbiyasiga ham e’tibor qaratish zarur. Milliy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishda milliy san’at va madaniy meroslarimizga hurmat ruhini shakllantirishimiz, yoshlar ongini turli xil “vandalizm”, “ommaviy madaniyat” kabi buzg‘unchi g‘oyalarga ta’siridan saqlovchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

“Vandalizm”-so‘ziga wikipedia elektron lug‘atida shunday tarif beriladi:

-Moddiy va madaniy boyliklarni o‘ylamay netmay shavqatsizlarcha yo‘q qilib tashlash.(6.) Ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda bunday shavqatsizliklarni uchratish mumkin. Bunday vayronkor g‘oyalardan yoshlarni “jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasi bilan saqlash mumkin. Ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimiz uchun ta’sirchan kreativ va innovatsion uslublardan foydalanishimiz zarur.

Ushbu uslublarga yechim sifatida men xarbiy vatanparvarlik, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga chorlovchi video roliklarni tasvirga olib uni o‘z ijtimoiy tarmoqlarim telegram, instagram,yutub orqali ommaga namoish etib kelmoqdaman. Ayniqsa, Yutub platformasi orqali minglab kuzatuvchilar nafaqat yurtimizdan balki xorijiy davlatlardagi kuzatuvchilardan ham ijobiy izohlarni olmoqdaman. Shuningdek, zararli ta’sirlar va buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi OAV orqali o‘z maqolalarim bilan ham chiqishlar qilib kelmoqdaman. O‘ylaymizki, bu kabi targ‘ibot –tashviqot ishlarni ko‘paytirishimiz orqali endigina o‘sib kelayotgan yoshlarimiz ongini turli xil g‘arazli g‘oyalarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiya eta olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. “Academic Research in Educational Sciences” ilmiy jurnali ,- Volume 3 | Issue 6 | 2022, 119-bet
2. Sayid Raxmatulloh Termiziy, “Toshkent oqshomi gazetasi”, -14.12.2023yil 5-bet)
3. Temur Tuzuklari - “Ijod Press -2019”, 17-bet
4. Google research:“Yusuf Hos Hojibning “qutag‘u bilig asari”- T.Fan ,1971
5. I.A. Karimov Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir T. O‘zbekiston-1996, 82-bet
6. Uz.m.wikipedia.org